

SOVETLARNING O‘ZBEKISTONDA YURITGAN AGRAR SIYOSATI. DEHQON XO‘JALIKLARINING TUGATILISHI (1920-1935- YILLAR)

Raxmatulloyev Umid

Buxoro Davlat Universiteti

Tarix-(yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha)
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1920-1935-yillar oraligida O‘zbekistonda sovet hokimiyatining yuritgan agrar iqtisodiy siyosati, uning mahalliy dehqon xo‘jaliklariga bo‘lgan salbiy ta‘sirini va ushbu siyosatning natijalarini turli tarixiy adabiyotlar, kitoblar va ilmiy ishlarni tahlil qilgan holda yoritishga qaratilgan. Ushbu davrni yoritishda sovet davridagi va mustaqillik davridagi tarixiy ma‘lumotlar va sifralarni tahlil qilgan holda to‘g‘ri xulosa chiqarishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: Sanoatlashtirish, agrar siyosat, quloqlashtirish, kollektivlashtirish, tarixiy jarayonlar, qishloq xo‘jaligi, xalq xo‘jaligi, repressiya, iqtisodiyot, qo‘zg‘olonlar.

KIRISH

O‘zbekistonning XX asr birinchi choragidagi tarixi bir qancha siyosiy, ijtimoiy hodisalarga boy davr bo‘ldi. Mazkur davrda O‘rta Osiyoda sovetlar tomonida milliy hududiy chegaralanishlar o‘tkazildi va sovet ittifoqi tarkibidagi O‘zbekiston SSR davlati tuzildi. Boshqaruv organlarining nazorati to‘laligicha sovet hukumatining qo‘l ostida bo‘ldi. Markazning olib borgan totalitar boshqaruvi asosida ishlab chiqarish va qishloq xo‘jalik tarmoqlari majburiy tarzda kollektiv jamoa xo‘jaliklariga birlashtirildi. Qishloqda mehnatkashlar uchun ham ko‘plab o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Dehqon xo‘jaliklari tugatilib kollektiv jamoa xo‘jaliklariga birlashtirildi. Sovetlar agrar siyosatni olib borishda mahalliy xalqning tarixiy xo‘jalik yuritish odatlarini to‘laligicha yo‘q qildilar. Kollektiv xo‘jaliklarga uyushmagan dehqonlar turli bahonalar bilan quloq qilindi va ularning yer mulklari davlat foydasiga musodara qilindi.



ASOSIY QISM

SSSR degan davlat 1922-yilda tuzilganidan keyin hukmron kommunistik partiya ittifoq davlati tarkibidagi hududlarning agrar sohasini to'liq isloh qilishga kirishdi. O'zbekiston ham bu o'zgarishlardan chetda qolmadi O'zbekiston SSRning sanoati asosan agrar sektorga bog'langan edi. Respublika aholisining qariyb 85 foizdan ortig'i qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanardi. Raqamlarga e'tibor beradigan bo'lsak agrar sohada yetishtirilgan mahsulotning hissasi O'zbekiston yalpi mahsulotining deyarli 80 foizini berar edi. Sovetlar qishloq xo'jaligini isloh qilishda noto'g'ri yo'lni tanladilar. Ular go'yoki katta mulklarni g'ayriinsoniy yo'l bilan orttirgan, boshqalar mehnatini ekspluatatsiya qilib kelgan degan vajlar bilan yirik va o'rta hol dehqonlarni sinf sifatida tugatishni agrar islohotning asosi deb qo'yishdi. Dehqonlarning mol mulklari asossiz tortib olinib boshlandi. Birgina 1921-yilning 17-iyunida Bozorqo'rg'on tumani ijroqo'mi Andijon uyezd-shahar ijroqo'miga yo'llagan xatida surgun qilinishi kerak bo'lgan "boy-quloqlar"ning 131 kishidan iborat bo'lgan ro'yxatini yo'llab, ularni zudlik bilan badarg'a qilish kerakligiga rozilik bildiradi.

Respublikada ko'plab dehqon xo'jaliklarini tugatish ishlari boshlandi. Jumladan, 1925-1929-yillar oralig'ida Samarqand, Toshkent, Zarafshon va Farg'ona viloyatlarida 2603 ta xo'jalik "quloq"lar deb hisoblanib yerlari musodara qilindi. Xorazm va Qoraqalpog'iston viloyatlarida esa 989 ta xo'jaliklar "quloq xo'jaliklari" sifatida baholanib, ularning egalari badarg'a qilindi. Aynan mazkur davrda respublikada 4801 ta xo'jalik "quloq xo'jaligi" deb topildi va tugatildi. 23036 ta xo'jaliklarning yerlari esa ortiqcha deb e'lon qilindi va tortib olindi. Natijada respublika yer jamg'armasiga 474393 desyatina yerning qo'shilishiga erishildi. Yerlarni olishdan tashqari dehqonlarning mehnat qurollari, asbob uskunalar, ish hayvonlari ham davlat foydasiga musodara qilindi. Sovetlarning bu islohotlari agrar sohaga katta zarba bo'ldi va norozilik harakatlarining boshlanib ketishiga sabab bo'ldi. Aynan 1929-yilning o'zida O'zbekistonda quloqlarning 1300 dan ortiq qo'zg'olonlari qayd etildi.

Boy dehqon xo'jaliklarining yerlarini asossiz musodara qilinishi va ularning boyliklarini tortib olinish holatlarining ortib borishi bilan respublikada norozilik harakatlari ham ortib bordi. Natijada ba'zi qishloq rayonlarida va tumanlarda ijroiya qo'mita xodimlariga qarshi boshlangan norozilik chiqishlari keyinchalik terror holatlarining boshlanishiga turtki berdi. Birgina 1928-yilning o'zida respublikada



218, 1929-yilda 429, 1930-yilning yanvar-aprel oylarida 106, jami hisobda 653 ta terrorchilik harakatlari sodir etildi.

Kommunistik partiyaning qaroriga ko‘ra nisbatan boy bo‘lgan va yollanma mehnatdan foydalanuvchi o‘rtahol dehqonlarning yerlari ham musodara qilinadigan yerlar ro‘yxatiga qo‘shildi. O‘zbekiston Kommunistik partiyasining II siezdida qabul qilingan “Yer islohoti to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra yerdan foydalanish “normasi qisqartiriladigan boy guruhiga” yollanma mehnatni joriy qilgan barcha dehqon xo‘jaliklar ham kiritilgan edi. Sovet hukumatining bundan ko‘zlagan asosiy maqsadi yirik va o‘rta xo‘jaliklarni tugatib, xalqni yagona ishlab chiqarish xo‘jalik kompleks tarmog‘iga birlashtirish edi.

O‘zbekiston SSRda 1925-1929-yillarda yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi o‘tkazildi. 1925-yilning 2-dekabrida O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining “Yer-suv islohoti” to‘g‘risida, “Yer va suvni natsionalizatsiya qilish” to‘g‘risidagi qarorlari qabul qilindi. Qarorning yomon tomoni shunda ediki, bunda dehqonlardan katta yer xo‘jaliklari yerni natsionalizatsiya qilish bahonasida tortib olish ishlari boshlandi. Mazkur yillarning o‘zida Zarafshon, Samarqand, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida jami 254,2 ming desyatina yer jamg‘armasining hosil bo‘lishiga erishildi. Achinarli tomoni shunda ediki, tortib olingan yerlarning 70 foizdan ortig‘i kommunistlar “boylar” deb ataydigan o‘rtahol dehqonlarning yer xo‘jaliklari edi. Bu siyosatni kommunistlar kollektivlashtirish siyosati deb atab unga farovon kelajak to‘nini kiydirdilar. Birgina misol tariqasida Qashqadaryo vohasini olsak aynan yer-suv islohoti tufayli 989 ta xo‘jaliklar tugatildi, 12556 tanob sug‘oriladigan yerlar tortib olindi. Bundan tashqari 5290 tanob lalmikor yerlar, 1001 ta ot, 1194 ho‘kiz, 274 ta tuya tortib olindi.

O‘zbekistonda ushbu ziddiyatli davrda respublika qishloq xo‘jaligi va uni tartibga solish bilan bog‘liq ko‘plab muammolar yetilib qolgan edi. Qishloq xo‘jaligi yetakchi bo‘lgan O‘zbekiston ssr sanoati uchun agrar sektorni modernizatsiya qilishni zamonning o‘zi taqazo qilayotgandi. Dehqonlarning o‘zi ham yetarli darajada yerga ega emasdi. 1925-yilgi raqamlarga qaraydigan bo‘lsak har 100 xo‘jalikdan 13 tasida xo‘jalik uchun ekin yeri yo‘q edi. Yersiz yoki ikki desyatinagacha yerli xo‘jaliklar esa 71.8 foizni tashkil etardi.

Farg‘ona viloyatida 1925-yilgi holat misolida qaralganda 155 ta xo‘jalikni tugatish rejasi qo‘yilgan edi. Lekin 1926-yilgi raqamlarga qaralganda ushbu reja uch yarim barobar ortig‘i bilan bajarilib, tugatilgan dehqon xo‘jaliklarning umumiy soni

575 tani tashkil etdi. Bundan shuni ko‘rish mumkinki, sovet hukumati tomonidan kollektivlashtirish siyosati shu darajada olib borildiki hatto boy bo‘lmagan oddiy, kam yerli mehnatkash dehqonning ham yerlari jamoa xo‘jaliklari foydasiga tortib olinib, ularning o‘zlari esa quloq qilindi. Albatta bunday zulmkorlik aholining qattiq noroziligiga sabab bo‘ldi va turmush darajasining yomonlashishiga, oziq-ovqat mahsulotlari narxining oshishiga olib keldi.

O‘zbekiston sanoatida 1925-1930-yillarda olib borilgan islohotlarning asosi kommunistik mafkuraning va shovinistik kompartiyaning buyruqlariga so‘zsiz bo‘ysunadigan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgandi. Ushbu siyosatni oqlash maqsadida ittifoq hududida yagona, markazlashgan kompleks xo‘jalik tizimini qo‘llash g‘oyasi kommunistik partiya tomonidan ilgari surilgandi.

Sovet hukumatining topshirig‘i natijasida ittifoq hududida kollektivlashtirish sur‘atlari sun‘iy tezlashtirildi. Bunga ayniqsa kompartiya “dohiysi” I.Stalinning 1929-yilda Правда gazetasida chop etilgan “Buyuk burilish yili” maqolasi katta dastak bo‘ldi. Unda “xalqlar dohiysi” kollektivlashtirish siyosati jadal suratlarda ketayotganligi, qishloq mehnatkashlarining ommaviy ravishda kollektiv xo‘jaliklarga kirayotganligi aytilgandi. Lekin real ahvol bunday emasdi.

XULOSA

O‘zbekiston tarixida 1920-1935-yillarda olib borilgan islohotlarning asosi kommunistik mafkura asosidagi va shovinistik kompartiyaning buyruqlariga bo‘ysunadigan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgandi. Ushbu siyosatni oqlash maqsadida ittifoq hududida yagona, markazlashgan kompleks xo‘jalik tizimini qo‘llash g‘oyasi kommunistik partiya tomonidan ilgari surildi. Kommunistik partiya dohiylari maqtagan sovetcha xo‘jalikning asl mazmuniga qaraydigan bo‘lsak, O‘zbekistonning sanoati, qishloq xo‘jalik tarmoqlari boshqaruvini to‘laligicha markazning tasarrufiga o‘tkazish, “markazdagi xo‘jayinlar”ning topshiriq va ko‘rsatmalariga so‘zsiz amal qilgan holda siyosat yuritish maqsadi yotardi. Aynan ushbu maqsadlar asosida birinchi zarba agrar sohaga ya‘ni dehqonlarga berildi. Ularga asossiz ayblar, turli tuhmatlar yog‘dirildi va mol-mulklari davlat foydasiga musodara qilindi. Sovet hukumatining olib borgan agrar, iqtisodiy va kommunistik siyosati natijasida xususiy mulkchilik deyarli tugatildi.



ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Аминова Р Х. Возвращаясь к истории коллективизации в Ўзбекистане. - Т, 1995.
2. Shamsutdinov R, Karimov SH. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. Toshkent. SHARQ. 2010. B. 267.
3. Ўзбекистон Тарихи.(1917-1991-йиллар).Ikkinchi kitob.Тошкент. O‘zbekiston. B. 309.
4. Ўзбекистон Совет Мустамлакачилиги Даврида. Иккинчи китоб. Тошкент. SHARQ. Б. 327.
5. ЎзбекмстонССР компартияси(б) II сиезди. Стенограмма хисоботи.(1926-йил 22-30-ноябр). Самарқанд. 1926. Б. 143.
6. Shamsutdinov R, Karimov SH. Vatan tarixi.uchinchi kitob.Toshkent.Sharq.2010. B. 259.
7. Ўзбекистон ССР Тарихи. III том. Тошкент. Фан. 1971.
8. Шамсутдинов Р. Ўзбекмстонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. –Т. Шарқ. Б. 55.

Research Science and
Innovation House

